XALQ DEPUTATLARI SHEROBOD TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 8-yanvar VII-18-1-8-119-K/26 Sherobod tumani

Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429, 437, 445 va 452-moddalariga muvofiq, Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash, shuningdek suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi hamda oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash masalasi yuzasidan tuman soliq inspeksiyasi (B. Akramov)ning hisoboti tinglanib, bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2026-yil 6-yanvardagi VII-17-2-8-0-K/26-son qarorini inobatga olib hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Sherobod tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman soliq inspeksiyasi (B.Akramov)ning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429,437,445 va 452-moddalariga asosan Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida *(yuridik)* qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari **1-ilova**ga;

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-moddasiga muvofiq 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **2**-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 452-moddasiga muvofiq 2026-yilda Yer qa’ridan foydalanganlik noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **3**-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Sherobod tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (**U.Xamrayev**), tuman Soliq inspeksiyasi (**B.Akramov**)larga:

- Surxondaryo viloyati bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 37,7 mln.so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 353,00 so‘m bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish orqali ommaga taqdim etish;

- belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

Shuningdek, Surxondaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning 2026-yil uchun mol-mulk hamda yer solig‘i stavkalarini belgilash haqidagi Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining qarori loyihasida Surxondaryo viloyati Sherobod tumani bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun **49010,0 ming.so‘m** hamda jismoniy

shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun **402,53 so‘m** bazaviy soliq stavkalari belgilanishi nazarda tutilganligini ma'lum qilgan.

- Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalari, shuningdek suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari, soliq organlarining rasmiy axborot resurslari hamda elektron soliq tizimlari orqali qaror kuchga kirgan kundan boshlab besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olsin. **har chorak yakunida** yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlar to‘g‘risida hamda yuridik shaxslarga hisoblangan mol-mulk solig‘i va undirilgan boshqa soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borsin.

4. **Xalq deputatlari Sherobod tuman Kengashi deputatlari,** tuman hokimligi axborot xizmati (A.Toshtemirov) va “Sherobod hayoti” gazetasi tahririyati (P.Muhammadiyev) mazkur loyihalarni amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan qaror loyihasiga sessiyada deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar inobatga olinib, mazkur qarorga tuzatishlar, qo‘shimcha o‘zgartirishlar kiritilsin.

6. Xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashining 2025-yil 12-fevraldagi “Sherobod tumanida 2025-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash to‘g‘risida” va “Sherobod tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida” VII-6-14-8-119-K/25-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashining **Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar** masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (**A.Choriyev**) zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **ALIMOV USMON IBROXIMOVICH**

Xalq deputatlari Sherobod tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-18-1-8-119-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Sherobod tumaniga bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2026-yil uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyent miqdori

*O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida yuridik shaxslarning **qishloq xo’jaligi** uchun mo’ljallanmagan yerlarining bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida **1 gektar uchun mutlaq o’lchamda** quyidagi miqdorlarda belgilanadi:*

T/r	Mahalla nomi	**Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig’i stavkalari, 1 ga uchun**		**Jismoniy shaxslar yer solig’i bo’yicha, 1 kv.m uchun** *(turar joylar uchun belgilangan o’sish me’yoridan oshmagan holda)*	
		Koeffittsent miqdori *(0,7 dan 3,0 gacha)*	Yer solig’i stavkasi 2026 yil uchun *(so’mda)*	Koeffittsent miqdori *(0,7 dan 3,0 gacha)*	Yer solig’i stavkasi 2026 yil uchun *(so’mda)*
1	Balxiguzar MFY	0,95	46 559 500,00	0,81	326,05
2	Baxor MFY	0,85	41 658 500,00	0,92	370,33
3	Bogiobod MFY	0,90	44 305 040,00	0,75	301,90
4	Boybuloq MFY	0,90	44 305 040,00	0,81	326,05
5	Boyqishloq MFY	0,90	44 305 040,00	0,75	301,90
6	Buyuk ipak yuli MFY	1,07	52 587 730,00	0,92	370,33
7	Chagatay MFY	0,90	44 305 040,00	0,80	322,02
8	Chorbog MFY	0,90	44 305 040,00	0,77	309,95
9	Chuqurko‘l MFY	0,90	44 305 040,00	0,80	322,02
10	Chumichli MFY	0,90	44 305 040,00	0,80	322,02
11	Cho‘yinchi MFY	0,90	44 305 040,00	0,81	326,05
12	Dexqonariq MFY	0,90	44 305 040,00	0,81	326,05
13	Do‘stlik MFY	1,10	53 911 000,00	0,92	370,33
14	Galaguzar MFY	0,90	44 305 040,00	0,81	326,05
15	G‘ambur MFY	0,92	45 089 200,00	0,93	374,35
16	Gulchinor MFY	0,90	44 305 040,00	0,80	322,02
17	Guliston MFY	0,90	44 305 040,00	0,77	309,95
18	G‘o‘rin-Gilambob MFY	1,00	49 010 000,00	0,81	326,05
19	G‘urjak-1 MFY	0,90	44 305 040,00	0,81	326,05
20	G‘urjak-2 MFY	0,90	44 305 040,00	0,75	301,90
21	Istiqbol MFY	0,90	44 305 040,00	0,75	301,90
22	Katta xayot MFY	1,10	53 911 000,00	0,92	370,33

23	Kattabog‘ MFY	0,95	46 559 500,00	0,81	326,05
24	Qishlobozor MFY	0,90	44 305 040,00	0,81	326,05
25	Qizilolma MFY	0,90	44 305 040,00	0,75	301,90
26	Qorabog‘ MFY	0,90	44 305 040,00	0,81	326,05
27	Qulluqsho MFY	0,90	44 305 040,00	0,81	326,05
28	Qo‘rg‘on MFY	1,07	52 587 730,00	0,92	370,33
29	Majnuntol MFY	0,95	46 559 500,00	0,81	326,05
30	Mexnatobod MFY	0,90	44 305 040,00	0,77	309,95
31	Mexrobod MFY	0,75	36 757 500,00	0,90	363,89
32	Navbur MFY	0,95	46 559 500,00	0,85	342,15
33	Nurtepa MFY	0,95	46 559 500,00	0,85	342,15
34	Oqtepa MFY	0,90	44 305 040,00	0,75	301,90
35	Oltinvoxa MFY	0,90	44 305 040,00	0,80	322,02
36	Oyinli MFY	0,90	44 305 040,00	0,80	322,02
37	Poshxurt MFY	0,90	44 305 040,00	0,75	301,90
38	Sherobod MFY	0,90	44 305 040,00	0,80	322,02
39	Taroqli MFY	0,95	46 559 500,00	0,81	326,05
40	Uch yog‘och MFY	0,90	44 305 040,00	0,77	309,95
41	Uzunsoy MFY	0,90	44 305 040,00	0,76	305,92
42	Vandob MFY	0,90	44 305 040,00	0,77	309,95
43	Xakimobod MFY	0,90	44 305 040,00	0,81	326,05
44	Xujaqiya-1 MFY	0,90	44 305 040,00	0,85	342,15
45	Xujaqiya-2 MFY	0,90	44 305 040,00	0,85	342,15
46	Xo‘jgi MFY	1,07	52 587 730,00	0,92	370,33
47	Yoshlik MFY	1,07	52 587 730,00	0,92	370,33
48	Zarabog‘ MFY	0,90	44 305 040,00	0,77	309,95

Xalq deputatlari Sherobod tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-18-1-8-119-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yilda qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Ko‘rsatkich	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	***Koeffitsiyent***	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0

Xalq deputatlari Sherobod tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-18-1-8-119-K/26 -son qaroriga
3-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yilda qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	**Tuman nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Sherobod tumani	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0